ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 4/1 (152)
2025

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2025-yil, 4-son (152/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	“Spektral chiziqlarning kengligi va shakli” mavzusini “Aqliy hujum” metodidan foydalanib tushintirish **Qodirov M., Xaydarov X.**	Application of the “Brainstorming” Method in Teaching the Topic of “Spectral Line Width and Shape” **Kodirov M., Khaydarov Kh.**	**5-9**
2	Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ta’siri va uning ijtimoiy-falsafiy asoslari **Shukurova D.X., Normamatova M.N.**	The influence of digital technologies on the educational process and its socio-philosophical foundations **Shukurova D.X., Normamatova M.N.**	**10-15**
3	Axborotlashgan jamiyatda virtual madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar: axloqiy-falsafiy tahlil **Karimov O.I., Normamatova M.N.**	Virtual culture and social networks in the information society: Ethical and philosophical analysis **Karimov O.I., Normamatova M.N.**	**16-21**
4	Raqamli kompetentlik va uning oliy ta’lim boshqaruvidagi ahamiyati **Ochilov H.A.**	Digital competence and its importance in higher education management **Ochilov Kh.A.**	**22-27**
5	Jamiyatda ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot uyg‘unligining falsafiy mohiyati **Abrayev Sh.**	The philosophical essence of the harmony between spiritual stability and social progress in society **Abraev Sh.**	**28-31**
6	Mahalla kontekstida ijtimoiy kapitalning transformatsiyasi: O‘zbekiston tajribasi **Xo‘jamqulov A.**	Transformation of social capital in the mahalla context: the Uzbekistan experience **Khujamkulov A.**	**32-41**
7	Mutolaa fenomenini tushunishning ekzistensial paradigmasi **Dulanbayeva O.**	The existential paradigm of understanding the phenomenon of reading **Dulanbaeva O.**	**42-45**
8	O‘zbekistonda migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini o‘rganish yuzasidan xorijiy mamlakatlar tajribasi **Tangirova M.**	Experience of foreign countries in studying social protection mechanisms for migrant women in Uzbekistan **Tangirova M.**	**46-54**
9	STEM tashabbusi va muammolar **Sunnatova L.M.**	STEM initiatives and problems **Sunnatova L.M.**	**55-59**
10	Ko‘rishda nuqsoni bor shaxslar ijtimoiy integratsiyasining shaxsiylik omillari **Tohirova M.**	Personality factors in the social integration of persons with visual impairments **Tohirova M.**	**60-68**
11	Zamonaviy fanlarda axloqiy prinsiplar transformatsiyasi **Usmonov F.N.**	Transformation of ethical principles in modern sciences **Usmonov F.N.**	**69-73**
12	Tashqi ishlar xalq komissari Maksim Litvinov portretiga chizgilar **To‘raqulov B.T.**	Features for the portrait of the people's commissar for foreign affairs, Maxim Litvinov **Turakulov B.T.**	**74-83**
13	Turkistonda yashagan xorij fuqarolari tarixining manbaviy tahlili (tatar va yahudiy fuqarolari misolida) **Yarmatov O.Sh.**	Source analysis of the history of foreign citizens living in Turkestan (on the example of tatar and jewish citizens) **Yarmatov O.Sh.**	**84-89**
14	Blogerlik: oshkoralik yoki xavf **Xushvaqova N.**	Blogging: transparency or risk **Xushvakova N.**	**90-93**
15	Tibbiy ta’limda talabalarda tibbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari **Raxmanov A.A.**	Pedagogical opportunities for developing medical culture among students in medical education **Rakhmanov A.A.**	**94-98**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
16	Ko‘p yillik o‘quv-mashg‘ulot jarayonida kurashchilar tayyorgarligida yakkakurash elementlari bo‘lgan harakatli o‘yinlardan foydalanish **Kipchakov B.B.**	The use of movement-based games with elements of martial arts in the long-term educational and training process of wrestlers **Kipchakov B.B.**	**99-103**
17	Samarqandlik tadbirkorlarning Turkiston o‘lkasi iqtisodiyotida tutgan o‘rni **Normurodova G.B.**	The Importance of Samarkand Entrepreneurs in the economy of the Turkestan region **Normurodova G.B.**	**104-108**
18	Sharq mutakkakarlarining ijtimoiy-demografik merosi **Zaretdinova N.K.**	The socio-demographic legacy of eastern thinkers **Zaretdinova N.K.**	**109-114**
19	Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan ishlashninig o‘ziga xos jihatlari **Sultonov Q.I.**	Features of working with students in medical universities **Sultonov Q.I.**	**115-119**
20	Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda islom va mahalliy madaniyat o‘zaro ta’sirining sinkretik modellari **Ungalov A.A.**	Syncretic models of the interaction between islam and local culture in Sogd during the early Middle Ages **Ungalov A.A.**	**120-125**
21	Parodontologiya fanini o‘qitishda kreativ ta’lim texnologiyalari orqali talabalar profilaktik kompetensiyasini shakllantirish **Dalimova Sh.Q.**	Formation of students’ preventive competence through creative educational technologies in teaching periodontology **Dalimova Sh.Q.**	**126-130**
22	Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosatida qozilik (sud) tizimiga munosabat (Zarafshon okrugi misolida) **Tangirov Sh.A.**	The attitude toward the Qadi (judicial) system in the colonial policy of the Russian empire (a case study of the Zarafshan district) **Tangirov Sh.A.**	**131-137**
23	Samarqand shahri muqaddas qadamjolari topografiyasi **Tursunov J.A.**	Topography of the sacred sites of the city of Samarkand **Tursunov J.A.**	**138-144**
24	Boshqaruvda rahbarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish omillari **Sulaymanova D.K.**	Factors influencing the development of teamwork skills in leadership and management **Sulaymanova D.K.**	**145-149**
25	Falsafa komparativistika qadimgi Sharq va G‘arb madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari kontekstida **Usmonova L.R.**	Comparative philosophy in the context of problems of intercultural communication between ancient East and West **Usmonova L.R.**	**150-157**
26	Ichki ishlar organlari xodimlarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilishning rivojlanish bosqichlari **Kenjaev J.O.**	Stages in the development of legal and social protection for internal affairs officers **Kendzaev J.O.**	**158-163**
27	Davlat xizmati tizimida ichki ishlar organlaridagi xizmatning tavsifi **Radjapova L.N.**	Characteristics of service in internal affairs bodies within the civil service system **Radjapova L.N.**	**164-169**
28	Ibn Sinoning davlat boshqaruvi konsepsiyasida ratsional yondashuv **Adilova R.**	Rational approach of state governance in the concept of Ibn Sina **Adilova R.**	**170-175**
29	Surxon vohasida paxta yakkahokimligi siyosati natijasida amalga oshirilgan islohotlar **Yaqubova D.T.**	Reforms implemented in the Surkhan valley during the cotton monopoly policy **Yaqubova D.T.**	**176-180**

UDK: 130.1 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3529

JAMIYATDA MA'NAVIY BARQARORLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT UYG'UNLIGINING FALSAFIY MOHIYATI

Sh.Abrayev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Sh.Abrayev Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Kelib tushgan: 19.07.2025
Ko'rib chiqildi: 08.08.2025
Qabul qilindi: 14.08.2025
Nashr qilindi: 30.08.2025

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, ma'naviyat takomiliga erishish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini amalda ro'yobini ta'minlash borasida falsafiy fikrlar jamlangan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar jamiyatda konstruktiv g'oyalarning hayotiy amaliyotini namoyon etishda katta rol o'ynashi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy barqarorlik, ma'naviyat takomili, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, konstruktiv g'oyalar.

Философская сущность гармонии духовной стабильности и социального прогресса в обществе

Аннотация. В статье обобщены философские идеи, направленные на обеспечение духовной стабильности общества, достижение духовного совершенства и, тем самым, практической реализации законов общественного развития. Также подчёркивается важная роль духовно-образовательных процессов в проявлении созидательных идей в обществе.

Ключевые слова: общество, духовность, образование, духовная стабильность, духовное совершенство, общественное развитие, духовно-образовательные реформы, созидательные идеи.

The philosophical essence of the harmony between spiritual stability and social progress in society

Abstract. This article summarizes philosophical ideas on ensuring spiritual stability in society, achieving spiritual perfection, and thereby ensuring the practical realization of the laws of social development. It also highlights the important role that spiritual and educational processes play in the manifestation of constructive ideas in society.

Keywords: society, spirituality, education, spiritual stability, spiritual perfection, social development, spiritual and educational reforms, constructive ideas.

Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jamiyatda konstruktiv g'oyalarning hayotiy amaliyoti bo'lib, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni barqarorligi va tizimli ravishda takomillashuviga xizmat qiladi. Ma'naviyat makon va zamon xususiyatiga ko'ra o'zida progressiv munosabatlarni mujassamlashtirib, inson va jamiyatning umumtakomilida salmoqli rol o'ynaydi. Bu jarayon jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning makon va zamon xususiyatiga ko'ra inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda determinant xususiyatlarni namoyon etadi. Islohotlar doimiy ravishda tarixan retrospektiv xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirib, dinamik ravishda rivojlanib, o'zida har bir zamonga xos bo'lgan mental munosabatlarni o'zida jamlaydi.

Ma'naviyat insonni ruhan va aqlan takomillashuviga xizmat qiladi, jamiyatga ijtimoiylashuviga yo'l ochib beradi. Ijtimoiy hayotda bo'layotgan progressiv o'zgarishlar inson ma'naviyatining takomil bosqichi bilan tarixan uyg'un holda rivojlangan. Ijtimoiy taraqqiyotga oid har qanday bunyodkor g'oyalar negizida ma'naviyat yotadi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy munosabatlardagi konfliktli jarayonlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, har bir ziddiyatli

jarayonlarni murosa orqali hal etish borasidagi sa'y-harakatlarda ham ma'naviyat inson va jamiyatga yordamga keladi. Insonning ma'naviy qiyofasining nobarqarorligi jamiyatning umumiy ijtimoiy taraqqiyotiga destruktiv ta'sir ko'rsatadi. Chunki insondagi ichki ruhiy ziddiyatlar va ma'naviy beqarorlik insondagi progressiv kayfiyatlarni yemirilishiga, oqibatda jamiyat uchun jon kuydirish haqidagi konstruktiv tasavvurlarini ham kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'naviyat kishilararo munosabatlardagi barqaror munosabatlarning ham asosi hisoblanib, o'zaro murosa va kompromiss jarayonlari, jamiyatda tinch-totuv yashashga oid bo'lgan istiqbolli jarayonlar doimiyligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviyat jamiyatda ziyoli qatlamlar, intellektual mulk, inson resurslari, innovatsion bilimlarni, fan-texnika progressi kabi jarayonlarning ham rivojlanishiga ustqurma sifatida ta'sir ko'rsatadi. Intellektual mulk jamiyatda yuqori bilimlar, ilmiy salohiyatni oshirib borishga insonda ko'nikmalar hosil qiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz".

Insonning jamiyatda o'z o'rnini topishi ko'p jihatdan uning ma'naviy qiyofasi va ma'rifiy saviyasiga bog'liq. Insonning ijtimoiy ishga mas'uliyat bilan yondoshishi, burchga sadoqat, mehnat munosabatlarida halollik, doimiy vatanparvar bo'lish kabi ijtimoiy qadriyatlar jamiyatda ishonchli ma'naviy-ma'rifiy muhitni ta'minlaydi. Insonda oriyat, vijdonlilik, irodalilik, mulohazalilik, mardlik, adolatlilik kabi ijobiy sifatlarning shakllanishi ham jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifiy jozibadorlik namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Binobarin, "Inson faoliyati va xulqidagi eng muhim jihat mulohazalilik, hodisa, jarayonlarni mushohada qila olish salohiyati ham tafakkur va ruhiyat uyg'unligidan nishonadir".

Juda ko'plab salbiy xislatlar inson ma'naviy qiyofasining degradatsiyasiga olib keladi. Inson ma'naviy dunyosida irodasizlik, nomardlik, dangasalik, tubanlik, riyokorlik, axloqsizsizlik kabi xislatlar ham mavjud bo'lishi, ma'naviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikka ham putur yetkazishi mumkin. Binobarin, bugungi zamonaviy texnogen madaniy tamaddun davrida jahon miqyosida inson ma'naviy-axloqiy qiyofasining barqaror darajalari borasidagi jarayonlar o'ta murakkablashib bormoqda. Ingliz dramaturgi Bernard Shou yozganidek: "Hozir biz samoda qush bo'lib uchishni, suvda baliq kabi suzishni bilib olganmiz-u, ammo yerda insonday yashashni hali o'rganib olganimizcha yo'q".

Ma'naviy-axloqiy tamoyillar, ijtimoiy me'yorlarni unchalik mensimaydigan, ba'zi holatlarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar ma'naviy qadriyatlarga rioya qilinmasa ham qo'lga kiritish mumkin, deb o'ylaydigan insonlarning borligini ta'kidlash lozim. Hozirgi global jamiyatda ko'pgina insonlar jamiyatda bunyodkorlik asosida yaratuvchanlik, yangiliklarga intilish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish hissi emas, boqimandalik, dangasalik, ijtimoiy-foydali mehnatdan qochish, ma'naviy begonalashuv, axloqiy jihatdan tubanlik xislatlari egallay boshlamoqda. Ba'zi insonlar jamiyatda ijtimoiy hayotga ratsional, ya'ni aql va ma'rifat bilan, konstruktiv va ongli asosda yondashmasdan, irratsional, ya'ni ongsiz, nooqilona, destruktiv asoslarda o'zini ko'rsatish ustunlik qilayotganligi ko'rinib qolmoqda.

Jamiyatda ma'naviy barqarorlik o'ziga xos qonun va qonuniyatlar asosida ta'minlanadi. Chunki jamiyat taraqqiyotining umumqonuniyatlari inson ma'naviyati va intellektual salohiyati uyg'unligi asosida shakllanadi. Demak, jamiyat ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro determinantligi ham o'ziga xos tendensiyalar va qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Jamiyat ma'naviy barqarorligi qonunlari unda mavjud bo'lgan tizimlar xususiyatlarining o'ziga xos konsentratsiyasi, o'zaro aloqalari va tig'iz munosabatlariga oid jihatlarini namoyon etadi. Q.Nazarovning fikricha, "qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir".

Shuningdek, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda yoshlarning ijtimoiy taraqqiyot fonida har qanday zamonaviy yangiliklarga intilishi, tashabbuskorligi, yangi yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlashi kabi mavjud yuqori saviyadagi va ijobiy yo'naltirilgan salohiyatidan o'z vaqtida xolis va rag'bat asosida foydalanishga erishish muhim masaladir. A.Saitkasimovning fikricha, "Yoshlarning jamiyatdagi o'rni ko'p jihatdan uning axloqiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi, tarbiyaviy darajasiga bog'liq. Jamiyat ishiga mas'uliyat bilan yondashish, burchga sadoqat, oilaga ko'maklashish,

vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlar yoshlarning ijtimoiy qadriyatlariga aylansa, jamiyatda ishonchli ma'naviy-ma'rifiy muhit ta'minlanadi".

Jamiyatimizda nima uchun davlat tomonidan kitob o'qish, adabiyotga doir savodxonlikka doir bo'lgan infratuzilmalarni kengaytirish, kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir chora-tadbirlar kengayib bormoqda? Chunki bu jarayonlar negizida inson intellektini takomillashuvi, pirovardida ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashga doir yuksak maqsadlar yotadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida kitobxonlik madaniyati umummadaniy taraqqiyotning asosi bo'lib kelgan. Yurtimiz ma'naviy takomiliga ham tarixan shakllangan kitobat tizimi, kitobxonlik jarayonlari davlat miqyosida rag'bat berilishi bilan birgalikda oilaviy faoliyatda ham qamrab olingan edi.

Ma'naviy barqarorlik tizimidagi barcha chora-tadbirlarda aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib etish muhim jarayondir. Bu bilan bog'liq barcha ishlarni tashkil etishda teatr, festivallar, ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlarga aholini jalb etish ham muhim omillar hisoblanadi. Kitobxonlikka asoslangan tadbirlarni ta'limning barcha bosqichlarida tashkil etish kelajakda inson ma'naviyatini yuksalishi uchun eng muhim poydevor hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari muassasalar, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy ta'lim muassasalarida milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni targ'ib etadigan va asrab-avaylashga xizmat qiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni ko'proq o'tkazish kerak.

Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda yoshlarning milliy o'zlikni anglashi va demokratik tafakkurning milliy asoslarga suyanishi milliy-ruhiy ko'tarinkilikka olib keladi va islohotlarga kamarbastalik tuyg'ularini kamol toptiradi. Bu jarayonda yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, jamiyat ishi uchun kuch-quvvatga to'lib harakat qilish, inson va jamiyatning barqaror rivoji uchun iloji boricha ko'makchi bo'lishga asoslangan tafakkur tarzini vujudga keltiradi. Shuningdek, bu jarayon mamlakatda yashayotgan barcha yoshlarning umumiy maqsad va g'oyalar yo'lida birgalikdagi harakatlari va jipslashuviga ham turtki beradi.

Bu jarayonda eng muhim va ustuvor vazifa yoshlarning milliy o'zligini anglashi orqali o'z ijtimoiy tafakkurini boyitib, ma'naviy barqarorlikning takomillashuviga xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy faollik xususiyatlarini amalda namoyon qilishi muhim hisoblanadi. V.Qo'chqorovning fikricha, "O'zlikni anglashda shaxs o'zining xususiy manfaatini umumiy, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishi, zaruriy holatlarda jamiyat manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Ushbu fidoyiliksiz ijtimoiy-siyosiy faoliyat ijtimoiy xarakter kasb etmaydi, ijtimoiy-siyosiy voqelikka ko'tarila olmay egoizm va xudbinlik pog'onasida qolib ketadi. Demokratik jarayonlarda jamiyatda ijtimoiy keskinliklar, nobarqaror vaziyatlar ham uchrab turadi. Buning uchun esa, shaxslardan ichki ziddiyatlarni murosasiz qarashlarga aylantirmasdan, barqaror demokratik qadriyatlarni qaror toptirish yo'llarini izlashni talab etadi. Umuman olganda, siyosiy o'zlikni anglash mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning barqaror rivojiga xizmat qiladi".

Jahonda globallashuv jarayonlarida ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg'unlik asosida mavjud bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki insoniyatning ming yillar davomida shakllanib kelgan tinchlik va barqarorlikka oid tamoyillari ham qadriyatlarga hurmat ruhi bilan determinant hisoblanadi. Bugungi kunda barcha jamiyatlarda ma'naviy qadriyatlarga nisbatan turli tahdidlarning mavjudligi ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy usul-vositalar asosida targ'ibot qilishga qaratilgan faoliyatni muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda insonlarda ma'naviy qadriyatlarning degradatsiyasi xavfi anchagina aniq namoyon bo'lib bormoqda. Yoshlarning "ommaviy madaniyat"ning ko'pgina xususiyatlarini o'zlashtirib olayotganligi, tezkor axborotlar oqimi orqali ma'lumotlarni saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish borasidagi qobiliyatlarni ba'zi hollarda namoyon qila olmayotganliklari ham ma'naviy barqarorlikka putur yetkazadi. Jamiyatda demokratik tamoyillarning yuksalishi sharoitida yoshlarning so'z, vijdon va boshqa ijtimoiy-ma'naviy erkinliklardan to'g'ri va oqilona foydalanish qobiliyatlarini yanada kuchaytirish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorlashuvi uchun yoshlarda milliy va demokratik tafakkurning uyg'unlashuvi va qadriyatlarga hurmat ruhini doimiy ta'minlanishiga erishishimiz lozim. Yoshlarning jamiyatda mavjud ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni anglashi o'z qadr-qimmatini anglashi orqali turmush tarzini shakllantirishiga olib keladi.

Binobarin, jamiyatimiz ijtimoiy va ma'naviy barqarorligini saqlashda oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan biri ma'naviy islohotlarning amalda ro'yobida yoshlar ishtirokini yanada tizimliligini ta'minlash va bu jarayonda qadriyatlarga oid tamoyillarni asrab qolish hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, qadriyatlar tizimini targ'ibotini shakllantirishga qaratilgan jarayonlarni zamonaviy

uslublardan foydalangan holda tashkil etish muhimdir. Bu jarayonni ta’lim, tarbiya va targ‘ibot usullari orqali olib borish eng maqbul yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Ma’naviy barqarorlikni asrash borasidagi tashkiliy tizimlarda yoshlarning intellektual salohiyati, innovatsion bilimlarini oshirish va har tomonlama faol tashabbuskorlik qobiliyatlarini shakllashtirish muhim omil hisoblanadi. Bu boradagi ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida ma’naviy tarbiyaviy tadbirlarning mazmun va mohiyatini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1) ta’limning barcha bosqichlarida ma’naviy targ‘ibot ishlarini samaradorligini oshirish, uni zamonaviy ko‘lamda tashkil etishning innovatsion yo‘llarini izlab topish;

2) ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar tizimi, usullari va yo‘nalishlarini aniqlash va bu asosda ko‘plab dasturiy vazifalarni amalga oshirish;

3) ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar uchun moddiy va ma’naviy shart-sharoit yaratish, bu borada kelajak chora-tadbirlarni ham tashkil etish istiqbollarini ishlab chiqish;

4) ma’naviy tarbiyaviy tadbir uchun o‘quv-didaktiv vositalar, ko‘rgazmali qurollar, multimedia, slaydlar, madaniy va milliy qadriyatlarga oid manbalar bilan targ‘ibot muassasalarini ta’minlash;

5) ma’naviy tarbiyaviy tadbirlar uyushtirishda davlat va jamoatchilik tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ta’lim-tarbiya muassasalari, ota-onalar bilan hamkorlik o‘rnatish.

Hozirgi zamonaviy sharoitida ma’naviy muhit sog‘lomligi ta’minlashdagi eng asosiy vazifa yoshlarning ijtimoiy jihatdan yetukligi, barkamollik asosidagi qarashlar yordamida jamiyatning umumiy ishi, ijtimoiy taraqqiyot va umumbarqarorligini ta’minlashda mas’ullik munosabatlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy hayotda moddiy ne’matlar yaratuvchi, tadbirkor va omilkor shaxs sifatida kamolga yetishi va komil inson sifatida mukammal ijtimoiy-ma’naviy qiyofaga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi. Yoshlarning umuminsoniy tamoyillar va milliy ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar fenomeniga oid g‘oyalar asosida kamolga yetishi muhim istiqbolli jarayon hisoblanadi. Yoshlarning ma’naviy barqaror turmush tarzi bilan birgalikda, jismonan yetuk bo‘lib o‘sishlari, intellektual salohiyati kuchli, tashabbuskorligi yuqoriligi bilan birgalikda milliy g‘urur va vatanparvarlik xislatlarining mukammal shakllanishi ham ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot tamoyillarini hayotiy ro‘yobini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shuning bilan birgalikda bu jarayonda eng muhim xususiyatlardan biri shuki, yoshlarning o‘z manfaatlari bilan Vatan manfaatini uyg‘un holda ko‘rishlari hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy manfaatlarini doimiy va uzluksiz ravishda oshib borishi davlat va jamiyat miqyosida katta-katta dasturlarning yaratilishi va amalga oshishiga olib keladi. Shu jarayonda yoshlarimiz yaratilayotgan shart-sharoitlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishlari va turli xil noxolis xatti-harakatlar, boqimandalik kayfiyatiga berilmasliklari muhim jarayon hisoblanadi.

Demak, xulosa qilib aytganimizda, ma’naviy barqarorlik jamiyatdagi yuksak bilimlilik, intellektual salohiyat, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion resurslarning takomillashuvi bilan bilan birgalikda ta’minlanadi. U shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda tinchlik, osoyishtalik, ijtimoiy qatlamlar, ayniqsa, yoshlar guruhlari o‘rtasidagi hamjihatlik vaziyati, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi har qanday murosa va ijtimoiy kelishuvlar holatining davomiyligi, jamiyat institutlari o‘rtasida barqaror munosabatlarning muntazam saqlanib turishidir. Shuningdek, ma’naviy barqarorlik sog‘lom, barkamol va yuksak istiqbolli avlodning shakllanishi, ijtimoiy hayotning barcha tizimlarining taraqqiyot qonunlari asosida mavjud bo‘lishi va takomillashuviga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // http: // uza.uz.
2. Гримак Л.П. Разривы человической психики. –Москва, Политиздат, 1989. –С.173.
3. Gusseynov A., Apresyan R. Etika. – Moskva, Gardariki, 1999. -S.471.
4. Nazarov Q. Falsafa asoslari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2005. –B. 384.
5. Саиткасимов А. Значение улучшения сотсиалного поведения молодежи в стабилности общественных отношений. //Детство, открытое миру. Сборник материалов XB Всероссийской научно-практической конференсии с международным участием. Омск, 2025 г. –С.349.
6. Qo‘chqorov V. Siyosiy o‘zlikni anglashning ayrim jihatlari.// Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. -№1. –B. 62.